

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 30-noyabr, shanba,
138 (24.015)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Jamoatchilikning fikrini tan olish - bu hali adolatlilik emas, uni bajarish ham lozim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

E.O.Turdimovni Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, **Erkinjon Oqbutayevich Turdimov** boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 28-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

A.M.Boboyevni Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, **Adiz Muzafarovich Boboyev** Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil-28-noyabr

Prezident farmoniga ko‘ra

“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi joriy etiladi

Prezidentimizning joriy yil 14-noyabrdagi “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvardan jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirganlik uchun moliyaviy jarima bekor qilinadi. “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi joriy etiladi.

Elektron tizimda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past, o‘rta va yuqori darajalarga tasniflanadi. Xavf darajasi past bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o‘tkazilmaydi.

Shuningdek 2025-yil 1-yanvardan fiskal belgilarni aks ettirish tartibini buzish, majburiy raqamli markirovkalanishi belgilangan tovarlarni (mahsulotlarni) identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish, xodimlar sonini yashirish uchun ma’muriy javobgarlik bekor qilinadi.

2025-yil 1-martdan sudda ish yuritish taraflar kelishuv bitimi tuzganligi sababli tugatilganda, birinchi instansiya sudida – davlat bojining 70 foizi, apellyatsiya va kassatsiyada – 30 foizi qaytarib beriladi.

Farmon bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan barcha tekshiruvlar “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatga olish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etgan holda amalga oshirilishi belgilandi. Bunda tekshiriladigan tadbirkorlik subyekti aniq bo‘lmagan holatlarda tekshiruv boshlangandan so‘ng 24 soat ichida Biznes-ombudsman xabardor etiladi.

VILOYAT HOKIMI O‘ZGARDI

28-noyabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda deputatlar bilan birga viloyat, tuman va shaharlar sektor rahbarlari, boshqarma va idoralar boshliqlari, viloyat faollari ishtirok etdi.
Sessiyani viloyat Kengashi deputati F.Toshev boshqardi.







O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov sessiyada ishtirok etdi va so‘zga chiqdi.

Bosh vazir keyingi yillarda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash, aholining ijtimoiy sharoitlarini yuksaltirish borasida qator ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Bu viloyat shahar va qishloqlari infratuzilmasini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Samarqand bugungi kunda mamlakatimizning salohiyatli viloyatlaridan biri sifatida davlatimiz iqtisodiyotida o‘z munosib o‘rniga ega bo‘ldi.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlariga asosan Erkinjon Oqbo‘tayevich Turdimov boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etildi. U ushbu vazifada 2018-yil iyul oyidan buyon ishlab kelayotgan edi.

Hisob palatasi raisi lavozimida ishlab kelgan Adiz Muzaffarovich Boboyev Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Adiz Boboyev ish faoliyatini 1993-yilda Buxoro viloyati moliya boshqarmasida iqtisodchi sifatida boshlab, 2008-yilgacha mazkur boshqarmada turli vazifalarda ishlagan. So‘ngra, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasida, vazirlik tuzilmasidagi boshqa mas’ul lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan. 2024-yil yanvar oyidan Respublika Hisob palatasi raisi sifatida ishlab kelayotgan edi.

Sessiyada so‘zga chiqqan deputatlar – xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati mudiri S.Usmonov, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “Kumush tola” xususiy korxonasi rahbari M.Niyozova, Samarqand shahridagi “Sharq sanoat” konserni ta’sischisi Sh.Sharipov Erkinjon Turdimovning Samarqand viloyatini har tomonlama rivojlantirish borasidagi ishlarini e’tirof etdilar. Bu ishlarni davom ettirish va Samarqandni yanada obod qilishda yangi tayinlangan viloyat rahbari Adiz Boboyev bilan hamjihatlikda mehnat qilishlarini bildirdilar.

Sessiyada Erkinjon Turdimov hokim sifatidagi faoliyati davomida uni qo‘llab-quvvatlagan, yordam bergan viloyat ahliga minnatdorlik bildirdi. O‘z navbatida viloyatga yangi tayinlangan rahbar Adiz Boboyev ham so‘zga chiqib, Prezident va xalq ishonchini oqlash uchun deputatlar va rahbarlar, barcha samarqandliklar bilan birgalikda mehnat qilishini ta’kidladi.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Jo‘ra FOZIL, yozuvchi:
– Adolatsizlik alamzadalikka, alamzadalik esa qanoatsizlikka yo‘l ochadi.

Yangi yo‘l o‘tkazgich qurilishi –

eski muammolar yechimi

Samarqand shahrini Toshkent bilan bog‘lovchi M37 yo‘lidan Bulung‘ur-Urgut, ya’ni 4R47 yo‘lining ikkinchi kilometrida temir yo‘l kesishmasi joylashgan. Shu paytga qadar avtomobillar ushbu kesishma orqali harakatlanganda uzundan-uzun tirbandliklar va tartibsizliklarni keltirib chiqarardi. Agar poyezd o‘tadigan bo‘lsa, avtomobil yo‘lida harakat to‘xtatilardi. O‘qishga yoki ishga shoshayotganlar bir necha o‘n daqiqalik vaqtini kutishga yoki boshqa yo‘l orqali aylanib kelishga sarflardi.Shu kabi muammolarga barham berish maqsadida bu yerda yo‘l o‘tkazgich qurilyapti.



Qurilish bunyodkorlik ishlari Toshkent ko‘priklardan foydalanish unitar korxonasi hamda “Farovon yo‘l servis” MChJ ishchilari tomonidan amalga oshirilmoqda.

- Ushbu obyekt qurilishi 2023-yil dekabr oyida boshlangan, - deydi “Farovon yo‘l servis” MChJ ish boshqaruvchisi Bobur Asrorov. - Bunyodkorlik ishlariga 45 nafar ishchi, 30 nafarga yaqin mexanizator, 20 dan ziyod texnika vositalari jalb qilingan. Loyiha qiymati 80 milliard so‘m bo‘lib, joriy yilda qurilish ishlari uchun 24 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan.

Yo‘l o‘tkazgich 2025-yilning avgust oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

To‘lqin SIDDIQOV.

Yashil makon

Sug‘orish tizimi yo‘q joyda ekilgan ko‘chatlar hisoblanmaydi

Shu kunlarda barcha hududlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Jomboy tumanida bahor mavsumida 751 ming tupdan ortiq kashtan, eman, yapon saforosi, katalpa, shumtol, qayrag‘och, pavloniya, terak, tut, zarang, chinor, qrim qarag‘ayi, sharq tuyasi, virjin archasi, kompakt tuyasi kabi manzarali va jiyda, yong‘oq, behi, uzum kabi mevali daraxt ko‘chatlari ekildi. Kuzgi mavsumda 415 ming tup ko‘chat ekish ishlari olib borilmoqda.



Jumladan, Shirinkent mahallasida tuman nuroniylari tashabbusi bilan yerosti sho‘xlov bo‘lgan 4 gektar maydonda manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Lekin oldingi tajribalardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ko‘chatning ekilgani emas, ko‘kargani hisobga olingani ma’qul.

- Ekilgan ko‘chatlar suv bo‘lmaganligi uchun qurib qolishini inobatga olib, maxsus shtab tashkil etganmiz, - deydi tuman ekologiya bo‘limi boshlig‘i Jo‘rabek Rahmatov. – Ushbu shtab faqat suv ta’minoti bo‘lgan joylarda ekilgan ko‘chatlarni bazaga kiritish bilan shug‘ullanadi. Yuqorida qayd etilgan Shirinkent mahallasida 4 gektar maydondagi ko‘chatlar ham suv ta’minoti bo‘lmaganligi uchun bazaga kiritilgan emas. Hozirgacha tumandagi ijtimoiy soha tashkilotlari, klaster va fermer xo‘jaliklari, korxona va tashkilotlar o‘zlariga biriktirilgan maydonlarda ko‘chat ekish ishlarini olib bormoqda. Lekin artezian qazilmagan yoki sug‘orish imkoniyati yaratilmagan joylarda ekilgan ko‘chatlar hisobga olinmaydi. Har bir korxona-tashkilotda ko‘chat parvarishi uchun biriktirilgan mas’ullar bor va ular sug‘orishni tashkil etish bilan shug‘ullanadi.

Shu paytgacha ekilgan ko‘chatlarning qurib qolishi ham kuzatildi. Bu haqda mas’ullar ogohlantirildi va kamchilikni tuzatish uchun imkon berildi. Ogohlantirishdan to‘g‘ri xulosa chiqarmaganlarga nisbatan ma’muriy jarimalar qo‘llanildi. Hozirgacha 7 joyda ekilgan ko‘chatlarning qurib qolish holatlari uchradi va biriktirilgan soha mas’ullariga nisbatan jarima belgilandi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

Ekologik munosabatlar asosi

Konstitutsiya mamlakatimizda boshqa sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi. Olib borilayotgan ekologik siyosat ham unda belgilangan normalar asosida amalga oshiriladi.



Asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo‘yicha asosiy prinsiplari mustahkamlanib, fuqarolarning ekologik burchlari belgilangan, jamiyat ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari qayd etilgan.

Bu normalar shartli ravishda ikki qismga – umumiy va maxsus ekologik normalarga bo‘linadi. Umumiy konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umumiy konstitutsiyaviy normalarda ekologik munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan, qolaversa, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Misol uchun, Konstitutsiyaning 10-bobida inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari belgilangan, unda davlatning fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan (shu jumladan ekologik) huquqlarini kafolatlashi qayd etilgan.

Konstitutsiyaning 62-moddasiga muvofiq, “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”. Ushbu norma birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanganini ko‘rsatmoqda. Ikkinchidan, atrof tabiiy muhit tushunchasining huquqiy mazmunidan kelib chiqib, ushbu norma fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish majburiyatini ham nazarda tutadi.

Asosiy Qonunimizning 66-moddasida belgilanganidek, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Ushbu normaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mulk huquqi, xususan tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mazmunini belgilovchi mulkdor vakolatlari tartibga solingan hamda bunday xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi talabi mustahkamlangan.

Davlat ekologik siyosatining asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Ushbu konstitutsiyaviy norma davlat ekologik faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplarini ifodalaydi:

Birinchidan, respublika tabiiy resurslari umummilliy boylik hisoblanadi, ya’ni yuridik ma’noda ular xalq mulkini tashkil etadi hamda ular nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qonunda belgilangan vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Ekologiya huquqida oqilona deganda, tabiiy resurslardan ekologik normativ va standartlarga qat’iy rioya etgan holda foydalanish tushuniladi.

Uchinchidan, tabiat obyektlari va resurslari davlat tomonidan qo‘riqlanadi. Bu davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta’minlashini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquq va manfaatlariga, shuningdek ekologik huquq-tartibotga rioya etilishini kafolatlashini anglatadi.

Konstitutsiyamizning 100-moddasida esa, mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vakolatlari sanalgan bo‘lib, ushbu vakillik organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘z hududida “atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish” bo‘yicha vakolatlari mustahkamlangan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan asosiy ekologik-huquqiy normalar bugungi davr talablariga to‘la mos bo‘lib, mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta’minlashga, atrof-muhit musaffoligini saqlashga, tabiatni hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda.

Dilshod XUSHVAQTOV,
viloyat ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

1-MODDA. O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

2-MODDA. Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

3-MODDA. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.



Har kim munosib mehnat qilish huquqiga ega

Payariqlik Mirjalol bundan ikki yil oldin avtohalokatga uchrab, nogiron bo‘lib qoldi. Ikki farzandi bor, ayni mehnat qilib, oilasini boqadigan davri. Shu bois u imkoniyatidan kelib chiqib mehnat qilishda davom etdi. Boshida osonroq kunlik ishlarga chiqdi, keyin xotini bilan parda tikishni yo‘lga qo‘ydi. Biroq har ikki soha ham doimiy daromad keltirmas edi.

— Asosiysi tushkunlikka tushganim yo‘q, - deydi Mirjalol Saida’zamov. – Harakatlarim besamar ketmadi. Olti oy oldin “Nemo Area” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga operator lavozimiga ishga kirdim. Sharoiti o‘zimga mos. Rahbarimiz imkoniyatlarimni inobatga oladi. Uyda ham ish to‘xtagani yo‘q, oilaviy tikuv sexini ochish harkatidamiz.

Mehnat qilish huquqi har bir fuqaroning Konstitutsiyada belgilangan asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi kerak. Joriy yilgi davlat dasturida ham bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilgan. Imkoniyati cheklanganlar bu huquqdan foydalana olyaptimi? Payariq tumani misolida vaziyatni o‘rganishga harakat qildik.

Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazidan olgan ma’lumotimizga ko‘ra, tumanda 5 ming nafarga yaqin imkoniyati cheklangan fuqaro istiqomat qiladi. Shundan 773 nafari mehnatga layoqatli. Davlat idoralarini qo‘shmaganda, bo‘lim tomonidan joriy yil faqat 8 nafar nogironligi bor fuqaroga xususiy sektorda ishga joylashishda ko‘mak berilibdi. Shundan 4 nafari ish beruvchi tomonidan oylik berilmaganligi uchun hozirda ishga chiqmayotgan ekan. Mirjalol omadi yurishgan 4 nafardan biri.

— Vazirlar Mahkamasining 203-son qaroriga asosan, nogironligi bo‘lgan fuqarolarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga 6 oy davomida har oy bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya ajratilishi ta’minlanyapti, - deydi bo‘limning ishsizlarni hisobga olish va ish bilan ta’minlash shu’basi mudiri Usmon Otaqulov. – Shuningdek, ish beruvchilar o‘rtasida hukumat tomonidan berilayotgan shu va boshqa imtiyozlar yuzasidan tushuntirish-targ‘ibot ishlari olib borilyapti. Natijada hamkorlikka rozi bo‘layotgan ishbilarmonlar soni ortib bormoqda. Bundan tashqari, tuman hokimining tegishli qarori bilan joriy yil hududdagi 133 ta tashkilotda 392 ta zaxiralangan ish o‘rni yaratildi. Shundan 63 ta korxona-tashkilotda 93 ta bo‘sh ish o‘rni nogironligi bo‘lgan fuqarolar uchun ajratilib, hozirgacha ularda 60 nafar fuqaro ishga joylashtirilgan.

Tumanda imkoniyati cheklangan fuqarolar mehnat qilishiga ixtisoslashtirilgan korxona yoki tashkilot yo‘q ekan. Mehnatga layoqatli shaxslarni tavsiya etilgan kasblarga yo‘naltirish yoki qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga tayyorlash va qayta tayyorlash choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, o‘tgan vaqtda 58 nafar shunday fuqaro kasb-hunarga o‘qitilgan bo‘lsa, shundan 40 nafari yangi mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirilgan.

— Tahlillar 700 nafar nogironligi bor fuqaro turli sohalarda mehnat qilib kelayotganligini ko‘rsatdi, - deydi tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi shu’ba mudiri Rahmatulla Yunusov. – Ammo ularning 500 nafarga yaqini ish beruvchisidan nogironligini yashirib ishlab kelayotgan ekan. Holbuki, teskarisi bo‘lganida, imkoniyati cheklangan fuqaro ham, uni ishga olgan ish beruvchi ham qonunchilikda belgilangan qator qulayliklardan foydalangan bo‘lardi. Mutaxassislarimiz joylarda har ikki tomonga shu bo‘yicha tushuncha berib bormoqda.

Bandlik idorasi va ijtimoiy xizmat tizimi o‘rtasidagi hamkorlik samarasi o‘laroq tumanda imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun ham teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, ijtimoiy xodimlar har bir nogironligi bor fuqaro bilan individual ishlab, ularni reabilitatsiya qilish, kasbga yoki parasportga yo‘naltirishga bosh-qosh bo‘lmoqda. Hozirgacha tumandan 53 nafar imkoniyati cheklangan fuqaro parasport turlariga jalb qilingan. 128 nafariga protez-ortopediya moslamalari, 728 nafariga reabilitatsiya qilishning texnik vositalari berilib, ijtimoiy faolligi oshirilgan.

— O‘tgan yili Buxoro davlat universitetini tamomladim, - deydi II guruh nogironi Jabbor Shavqiddinov. – Orzularim katta. Shu bois tumanga kelgach, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga borib, ish so‘radim. Ularning ko‘magi bilan bankka, o‘z mutaxassisligim bo‘yicha ishga kirdim. Hozircha muammo yo‘q, o‘zim xohlagandek muhitda ishlayapman.

Mavzuni o‘rganish davomida ikki holat e’tiborimizni tortdi. Birinchisi, bandlik idorasining nogironlarni ish bilan ta’minlashdagi ishtiroki kamligi. Boshqacha aytganda, tashkilot faoliyati asosan budjet yoki davlat ishtirokidagi idoralarda zaxiraga olingan ish o‘rinlari bilan cheklanadi. Asosiy ish beruvchi hisoblanmish xususiy sektor bilan hamkorlik masalalari maqtagulik emas. Ularda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot olishning qonuniy tartibi ishlab chiqilmaganligi buning sabablaridan biri.

Yana bir masala, bandlik idorasi e’lon qilgan vakant ish o‘rinlari haqidagi ma’lumot imkoniyati cheklangan fuqarolarga asosan ijtimoiy xodimlar orqali yetkazilayotganligi. Jarayonda vaqt va ishchi kuchi resursi yo‘qotilmoqda. Agar respublikada bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlar jamlanadigan yagona elektron platforma yaratilsa va unda budjet tashkilotlari qatori xususiy sektor vakillari ham o‘zida mavjud ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotni erkin, byurokratik to‘siqlarsiz joylashtirishi imkoniyati bo‘lsa, jarayonda samaradorlik yanada ortgan bo‘lardi. Bunda har bir fuqaro ilovaga kirish orqali o‘ziga eng yaqin hududdagi bo‘sh ish o‘rinlarini ko‘rishi, ish beruvchi bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lishi kerak, albatta.

Asqar BAROTOV.

8 sotix yerdan 40 million so‘m daromad

Ishtixon tumanining Dehqonobod mahallasida bir oila bor. Xonadon egasi Samad Boliyev hunarmand-usta – beshik yasaydi. Bo‘sh vaqtlarida tomorqadagi og‘ir yumushlar bilan shug‘ullanadi. Qolgan ishlarni uning turmush o‘rtog‘i Dilorom opa eplaydi. Ularning tomorqasi 8 sotix. Bu maydondan yiliga 2-3 martagacha hosil olinadi. Yer qishda ham bo‘sh turmasligi uchun to‘qsonbosti ekinlar ekiladi.



- Bu yil erta ko‘klamda tomorqamizga kartoshka ekdik, - deydi Dilorom Boliyeva. – Uning hosilini yig‘ishtirib bo‘lgach, pomidor, karam, sabzi va boshqa mahsulotlar urug‘ini qadadik. Undan keyin esa, yaqinda sarimsoqpiyoz ekdik. Yaxshi mehnat qilsak, 8 sotixdan 2 tonna hosil olishimiz mumkin. Odatda biz hosilni yig‘ib olishimiz bilan mahsulotni bozorga chiqaramiz. O‘shanda kilosini 15-20 ming so‘mdan sotamiz. Agar mahsulotni saqlab turib qishga yaqin sotadigan bo‘lsak, ko‘proq foyda ko‘ramiz. Sababi ayni kuzqish mavsumida bir kilogram sarimsoqpiyozning narxi 35-40 ming so‘mga chiqadi. Shuni hisobga olsak, faqat sarimsoqpiyozning o‘zidan 70-80 million so‘m daromad topishimiz mumkin.

Tumanda 46 mingdan ziyod oila bo‘lib, ularga qarashli 9 ming 652 gektar tomorqa ekin maydoni mavjud.

- Keyingi yillarda mamlakatimizda aholi tomorqasidan foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilyapti, - deydi tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi mutaxassisi Abdurasul Tangirov. – Aholi ekin ekadigan tomorqa maydonining 1447,7 gektarida bog‘, 1623,9 gektarida uzumzorlar barpo etilgan bo‘lsa, 7580 gektarida sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Aholi o‘rtasida kuz va qish mavsumlarida ham tomorqadan unumli foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan targ‘ibot tadbirlari yaxshi natija beryapti. Bu yilgi mavsumda 4294 gektarlik tomorqa maydonlarida to‘qsonbosti ekinlar yetishtirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 1-noyabrga qadar 1453 gektar yerga avgust piyozi va sarimsoqpiyoz ekib bo‘lindi. Endi piyoz, sabzi, karam va ko‘kat mahsulotlari ekiladi. Tomorqachilikda Dehqonobod mahallasi aholisi tumandagi boshqa mahallalarga o‘rnak bo‘lyapti.

Tomorqadan ham mo‘may daromad topib, ro‘zg‘or tebratsa, uylar qurib to‘ylar qilsa bo‘ladi. Faqat buning uchun dehqonobodlik dehqonlar singari mehnat qilish, sabrli bo‘lish talab qilinadi.

Samandar TOSHNIYOZOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

Ijtimoiy xizmat “ega”siga yetib borishi kerak

Oramizda shunday insonlar borki, jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, ruhan va ma’nan hech kimdan kam emas. Ular ham sizu biz kabi hayotda, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, yaxshi yashashga va el-yurt farovonligiga hissa qo‘shishga intiladi. Afsuski, buning uchun ularga har doim va hamma joyda ham sharoit bo‘lmaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatimizda 108 ming nafardan ortiq nogironligi bor fuqaro istiqomat qiladi. Shundan 11900 nafari I guruh, 69 ming nafari II guruh nogironi. Ular orasida 20547 nafar bola ham bor. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni, eng avvalo, shu insonlar his qiladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugun ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas’uliyatni davlat o‘z zimmasiga olgan. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, jamiyatlar, ijtimoiy xodimu assistentlar imkoniyati cheklangan har bir insonni jamiyatga qaytarish, hayoti va faoliyati uchun zarur sharoitlarni yaratishdek oliy maqsadlar yo‘lida faoliyat yuritmoqda.

Biz ayni yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samarasini Samarqand shahri misolida o‘rganishga harakat qildik. Aytish joizki, viloyatimizning nogironligi bor fuqarolari eng ko‘p istiqomat qiladigan hududlaridan biri aynan Samarqand shahri hisoblanadi. Bugungi kunda ular 13600 nafardan ortiq bo‘lib, yil boshidan buyon 460 nafarga ko‘paygan.

Xususan, Bunyodkor mahallasida istiqomat qiladigan 2100 nafarga yaqin fuqaroning 46 nafarida nogironlik bor. Mahallaning ijtimoiy xodimi Laylo Yusupova imkoniyati cheklangan har bir fuqaro bilan alohida ishlab, turli ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatib kelmoqda.

Misol uchun, shu mahallada istiqomat qiluvchi Alizamin Norov bolalikdan birinchi guruh nogironi bo‘lsa-da, sportga qiziqadi. Ijtimoiy xodim bilan tanishguncha u yaqin atrofdagi sport to‘garaklariga borgan, ammo imkoniyatiga mos sharoitni topa olmagan. Mutaxassis uni parasportga yo‘naltirdi. Hozir Alizamin viloyatning malakali sport ustalari nazoratida mashg‘ulotlarda qatnashmoqda. Maqsadi jiddiy - jahon chempioni bo‘lish.

— Koronavirusdan keyin salomatligim surunkali yomonlashib, II guruh nogironi bo‘lib qoldim, - deydi shu mahallada istiqomat qiluvchi yana bir fuqaro Po‘lat G‘ulomov. – Davlatimiz doim ko‘makka shay, holimizdan xabar olib turuvchilar bor. Yaqinda ijtimoiy xodim yordami bilan reabilitatsiya uchun shifoxonaga joylashdim. Protez oldim. Bu g‘amxo‘rlik tufayli asta-sekin salomatligim ham yaxshilanib boryapti. Ishlashni, faol hayot kechirishni istayman.

Ijtimoiy xodimlar faoliyati hamda nogironligi bor fuqarolar kayfiyatini o‘rganish davomida bir holat e’tiborimizni tortdi. Ko‘pchilik hali ham ijtimoiy xizmatni moddiy yordam beruvchi faoliyat deb o‘ylar ekan. Ammo u fuqaroning kambag‘alligidan kelib chiqib belgilanmaydi. Misol uchun, mahallaning o‘ziga to‘q oilalaridan birida nogironligi bor fuqaro yashasa, uning uyi hashamatli ekan, deya e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. “Mahalla yettiligi” tomonidan o‘rganish olib borilib, oila va fuqaroga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xulosa berilishi mumkin. Buning aksi ham bo‘ladi. Misol uchun, nogironligi bo‘lgan fuqaro yoki uning yaqinlari ko‘proq moddiy yordam olishdan umidvor bo‘lib, salomatligini tiklash yoki ishga joylashish uchun yaratilgan imkoniyatlarni rad etsa, aniqrog‘i, boqimandalikka o‘tsa, munosabat ham shunga yarasha bo‘ladi.

— Mahallamizga joriy yil uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan 21 million so‘m limit berilgan, - deydi Laylo Yusupova. – Lekin shu vaqtgacha undan faqat 600 ming so‘m ajratildi. Sababi moddiy yordam har doim ham vaziyatni yaxshilamaydi, aksincha, fuqarolarda boqimandalik kayfiyatini o‘yg‘otishi mumkin. Shu bois sharoitidan nolib kelganlarga birinchi navbatda kasb va ish taklif qilamiz. Aynan shu usul haqiqiy muhtojni boqimandadan ajratib olish imkonini beradi. Harakat qilayotganlarga ko‘mak beriladi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, bugungacha 12745 nafar nogironligi bor fuqaro reabilitatsiya qilingan. 11 ming nafardan ortig‘i protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlangan. 8780 nafar imkoniyati cheklanganlar parasport bilan shug‘ullanish istagini bildirgan, 1200 nafardan ortig‘i kasbga o‘qitilib, umumiy hisobda 6700 nafarga yaqini ish bilan ta’minlangan. Mehnatga layoqatli nogironligi bor fuqarolar 41775 nafarligini inobatga olsak, hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Biroq yuqorida aytilganidek, qars ikki qo‘ldan chiqishi kerak. Jarayonda adolat bo‘lishi, ijtimoiy ko‘mak haqiqiy muhtojlarga yetib borishi lozim.

A.ORZIQULOV.

Jurnalistlar uyushmasidan samarqandlik yosh kitobxonlarga sovg‘a

Samarqand shahridagi viloyat axborot-kutubxona markazida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi tomonidan “Kitobxon bolalar” va “Dunyo daholari” ruknida chop etilgan kitoblar taqdimoti o‘tkazildi.



O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda jurnalistlar, shoir va yozuvchilar, viloyatdagi axborot-kutubxona markazlari mutaxassislari, hamkor tashkilotlar vakillari hamda yosh kitobxonlar ishtirok etdi.

Tadbirda bugungi kunda mamlakatimizda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilayotgani, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning to‘rtinchisi sifatida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish belgilangani ta’kidlandi.

- Bu ezgu tashabbus Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan e’lon qilingan ijtimoiy buyurtmalar tanlovidagi g‘oliblik asosida amalga oshirildi, - dedi O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov. - Ya’ni, “Aholi, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish” loyihasi asosida bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan o‘n nomdagi o‘zbek va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarining har biri 1000 nusxadan chop etilib, yurtimizdagi axborot-kutubxona muassasalariga beg‘araz taqdim etilmoqda.

Tadbirda ishtirok etgan ijodkorlar va kutubxonalar mas’ullari kitoblar bolalar e’tiborini o‘ziga jalb qiladigan ajoyib dizayn va yorqin ranglarda nashr etilgani, she’rlar, hikoyalar va ertaklar mazmuniga mos rasmlar bilan boyitilganini e’tirof etib, ular nafaqat ma’naviy boylik, balki haqiqiy xazina ekanini qayd etdilar. Kelgusida allomalarimiz to‘g‘risida va hududlardagi ijodkorlarning kitoblarini hali shu tarzda chop etish takliflari bildirildi.

Tadbirda viloyatdagi kutubxonalar va ixtisoslashtirilgan maktablar kutubxonalariga 720 dona kitob taqdim etildi.

Shuningdek, viloyat hokimligi tashabbusi bilan chop etilgan “Samarqand - yer yuzining sayqali” nomli kitob-albom ham kutubxonalarga topshirildi.

Husan ELTOYEV,
(muallif olgan suratlar).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Samarqand viloyat boshqarmasi tasarrufidagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan (kar va zaif eshituvchi) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 61-maktab-internati 1946-yilda tashkil topgan. Muassasaga viloyatimizning barcha tumanlaridan eshitishida nuqsoni bo‘lgan 6 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga asosan qabul qilinib, ularga ta’lim-tarbiya beriladi.

Imkoniyati cheklanganlarning imkoniyatlari

Bu yerda o‘quv tarbiya jarayoni Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv dasturlari va darsliklari asosida tashkil etilgan. Shu bilan birga, o‘quv jarayoniga korreksion darslar, eshitish idrokini rivojlantirish, nutqi va talaffuzini shakllantirish va kasbga yo‘naltiruvchi mashg‘ulotlar kiritilgan.

- Muassasamizda barcha sharoit yaratilgan, - deydi maktab-internati direktori Gulyara Irgasheva. - 300 o‘ringa mo‘ljallangan o‘quv binolari va shuncha o‘rinli yotoqxona, to‘garak mashg‘ulotlari uchun maxsus xonalar, kutubxona, oshxona hamda sport maydonlari mavjud. Ayni paytda muassasada 33 ta sinfda 336 nafar o‘quvchi bo‘lib, ularga 93 nafar defektolog, surdopedagoglar dars berib kelmoqda. Darsdan keyin maktab-internat kun tartibi bo‘yicha o‘quvchilar 65 nafar tarbiyachi nazoratida bo‘ladi.



O‘quvchilar darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun muassasada 30 turdagi fan, kasbga yo‘naltiruvchi hamda sport to‘garaklari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu to‘garaklarda faol qatnashib kelayotgan o‘quvchilar, turli tanlov va musobaqalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritib kelyapti. Jumladan, maktab-internat o‘quvchisi Tabassum Salimova 2023-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va ta’lim tarbiyani rivojlantirish fondi tomonidan o‘tkazilgan "Ziyolilar TOP-100" loyihasida g‘olib bo‘ldi. Shaxmat-shashka bo‘yicha viloyat ochiq birinchiligida internat o‘quvchilari Shamsiddin Ravshanov, Ozodbek Boliqulov birinchi, Shohruh Burxonov ikkinchi, Tabassum Salimova, Sarvarbek Xushvaqtov uchinchi o‘rinlarni egallagan. Oxirgi to‘rt yil davomida 20 nafarga yaqin bitiruvchi turli yo‘nalishda oliy o‘quv yurtlari talabalari bo‘lishdi.

Maktab-internatida o‘quv va ta’lim-tarbiya jarayonlari “Zamin” xalqaro jamoat fondining “Men eshitishni xohlayman” loyihasi doirasida homiylik sifatida berilgan zamonaviy eshitish uskunalari yordamida olib boriladi. Bundan tashqari, ushbu fond yordami bilan maktab-internatda zamonaviy kompyuter va robototexnika xonalari tashkil etilgan.

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

30 yoshga to‘lgan fuqaro oilaviy bolalar uyi ochishi mumkin

Joriy yilning 14-noyabr kuni davlatimiz rahbarining “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Unga ko‘ra, 2025-yilning 1-martidan yolg‘iz ona yoki otaga bir nafar farzandiga bola 3 yoshga to‘lguniga qadar maktabgacha ta’lim xizmatidan foydalanish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravarigacha (ayni kunda 562 ming 500 so‘mgacha) miqdorda moddiy yordam beriladi. Bunda moddiy yordam egizaklarning har biri uchun beriladi.

2025-yilning 1-fevralidan boshlab:

- oilaviy bolalar uyini tashkil etish uchun oilaning er va xotindan iborat to‘liq oila bo‘lishi talabi bekor qilinadi;

- 30 yoshga to‘lgan fuqarolarga oilaviy bolalar uyini tashkil etishga ruxsat etiladi;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar oilaga tarbiyaga (patronat) faqat ularning qarindoshlariga beriladi;

- yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning yashash xarajatlari, oilaviy bolalar uyini tashkil etgan fuqarolarga bolani tarbiyalagani (parvarishlagani) uchun ajratiladigan mablag‘lar tarbiyalanuvchilar umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va boshlang‘ich professional ta’lim muassasalarini tamomlaguniga qadar beriladi.

Oliy ta’lim muassasalarini tamomlagan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlar davlat fuqarolik xizmatiga tanlovsiz qabul qilinadi.

Rustam NORQULOV,
Samarqand shahar Davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

1-dekabr - Xalqaro OITSga qarshi kurash kuni

Ajdodlarimiz taomilida yomon narsa aytilmaydi, irim qilinadi. “Yomon so‘z yomonlikning o‘zini chaqiradi”, degan gapdan hadiklansam-da o‘zidan ko‘ra nomi qo‘rqinchli bo‘lgan xulqsizlik kasali – OITS (orttirilgan immun tanqisligi sindromi) haqida yozyapman. Ba’zan odamlarning ma’naviy qashshoqligi, juftiga sadoqatsizligining isnodi butun bir jamiyat, millatga uradi. Bu ma’naviy ko‘rlik sabab kasallikning biri mingga, mingi tumanga tarqalib, urchib ketmoqda. Kasallik inson organizmining immun tizimini izdan chiqarib, muqarrar o‘limga olib keladi. Tibbiyot davolashga ojizlik qilsa-da bemorning umrini uzaytiradi. Kasallik asosan jinsiy yo‘l bilan yuqadi.

Rahm va qahrni keltiruvchi kasallik

Mamlakatimizda 1987-yil chet elga chiqib, kasallikni orttirib olgan bemor ilk bor ro‘yxatga olingan. Kasallikni 1983-yil fransiyalik Lyuk Montane bemorning limfatik bezida, amerikalik Robert Gallo esa qonda aniqlagan. 1985-yilda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bu kasallikni OITS virusi deya nomlab, muallif olimlarni Nobel mukofoti bilan taqdirladi. O‘zbekistonda 2000-yilgacha ushbu kasallik faqat katta yoshdagilar, asosan, giyohvandlar, fohishalarda uchrab turardi.

Kasallik virusi tirik organizmda o‘n yillab saqlanib, ko‘payib, yashirin davri hech qanday klinik o‘zgarishsiz kechadi, bemor immun tizimi susayganligidan vafot etadi.

Dunyo bo‘yicha yiliga o‘rtacha 1,1 million kishi (50 foizi 25-34 yoshdagilar) OITSni yuqtirib olsa, 600 ming kishi shu kasallikdan o‘ladi. Afsuski, bu kasallik mamlakatimiz ahlini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q.

Kasallikning 19-50 yoshlilarida uchrashi jinsiy faol bo‘lgan vaqtiga to‘g‘ri kelmoqda (50 foizi 15-49 yoshli ayollardir). OITSning girdobiga tushganlarning 34,4 foizi kasallikni qamoqxonalarda orttirib oladi. Kasallanganlar hayotiy orzu-havasi va bor yutuqlaridan mosuvo bo‘lib, oilasi parokanda bo‘ladi.

Shuning uchun sog‘lom yashay desangiz, Gippokratning “Ovqating dori, doring ovqat bo‘lsin”, degan pandu o‘gitini hayotingizga dasturulamal qiling. Sog‘lom farzandli bo‘lishni juft tanlashdan boshlang. Ajdodlarining irsiy kasallik, nuqsoni va fe’l-atvorlari sizning zurriyodingizda bo‘y ko‘rsatishi mumkin. Kelin-kuyov tanlashni dinimiz qoralamaydi, bu taomil Amir Temur bobomizdan meros.

Tibbiy va milliy tarbiyasiz kishilar bor ekan, bu haqda tinmay targ‘ibot olib borish lozim. Bugungi maza, ertangi aza bo‘lmasligidan ogoh bo‘ling. Rahm va qahrni keltiruvchi OITSga ilakishganning begonasi yo‘q. Zero, ularning sha’ni mamlakatimizda qonun himoyasida.

Jumanazar MADIYEV,
Sog‘liqni saqlash a’lochisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OCHIQ MA’RUZALAR O‘TKAZILADI!

Samarqand davlat tibbiyot universiteti bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi ma’ruzalar zalida pediatriya fakulteti 301-305-guruh talabalari uchun **2024-yil 5-dekabr kuni “Bolalarda qon va immun tizimlari anatomiyasi va fiziologik xususiyatlari. Jarohatlanish semiotikasi” mavzusida** integratsiyalashgan ochiq ma’ruza o‘tkaziladi.

Ma’ruzachilar: Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi mudiri t.f.d., dotsent D.T.Rabbimova va mikrobiologiya kafedrasi dotsenti A.M.Vaxidova.

* * *

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash menejmenti kafedrasi ma’ruzalar zalida 6-kurs 601-604-davolash fakulteti talabalari uchun **2024-yil 11-dekabr kuni “Onalik va bolalikni himoya qilish” mavzusida** integratsiyalashgan ochiq ma’ruza o‘tkaziladi.

Ma’ruzachilar: katta o‘qituvchi S.B.Israilova va 2-oilaviy poliklinika akusher-ginekolog vrachi D.Zaripova.

* * *

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash menejmenti kafedrasi ma’ruzalar zalida 4-kurs davolash fakulteti talabalari uchun **2024-yil 18-dekabr kuni “Kasallanish va uni o‘rganish usullari” mavzusida** integratsiyalashgan ochiq ma’ruza o‘tkaziladi.

Ma’ruzachilar: katta o‘qituvchi X.X.Xakimova va davolash fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD Islomova Kamola Akramovna.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 18.

* * *

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Xamdamov Amon Raximovichga (2007-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Narzullayeva Dilovar Xabibullayevnaga (2013-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Davlatov Shaymardonga (2022-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 132-uy, 2-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullaeva Lola Shukurullaevna notarial idorasida marhum Bagirov Rustam Israilovichga (2023-yil 1-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullaeva Lola Shukurullaevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Umarov Akramga (2024-yil 29-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ibragimov Xayrullaga (2014-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Islyamov Xamraboyga (2007-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko‘chasi, 34-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Kuchkarov Abduraim Tuxtamurodovichga (2023-yil 30-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Past Darg‘om tumanidagi Abdijabbarov Jaxongir Abdixalilovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 32509804000016) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “BUNYOD MADADKOR” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304946496) dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *


Past Darg‘om tumanidagi “MUNIS FARM GOLD” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306409798) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyati kengashi jamoasi kengash raisi Badriddin Nasriyevga ukasi
Hasan NASRIYEVning
vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

Past Darg‘om tuman 4-son kasb-hunar maktabi jamoasi va kasaba uyushma qo‘mitasi kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi Baxriddin Toshmatovga onasi
NAZOKAT ayaning
vafoti munosabati bilan ta’ziya izhor etadi.

Qatag‘on qurbonlari

1937-yildan butun sovet ittifoqi bo‘ylab ko‘tarilgan “katta qirg‘in”ning qora ko‘lankasi 1938-yilda Payariqqa ham yetib keldi. Kechagina odamlar o‘rtasida yaxshigina hurmat qozongan rayon va xo‘jaliklar rahbarlarining deyarli barchasi birin-ketin “xalq dushmani”ga aylanib, hibsga olina boshlandi. Bular Payariq rayon partiya qo‘mitasini 1937-yildan buyon boshqarayotgan Bobonazar Fayziyev, raykomning II kotibi Grigoriy Osipov, rayon ijroiya qo‘mitasining raisi Abdug‘ani Toshtemirov, rayon partiya qo‘mitasining mafkuraviy ishlar bo‘yicha kotibi Boli Nurmatov, rayon yer bo‘limining boshlig‘i Toshpo‘lat Ahmedov, xalq maorifi bo‘limi mudiri Mirsaid Hamidov, moliya bo‘limi mudiri Sindor Ashurov, rayondagi Stalin nomli kolxoz raisi Davir Islomov, “Sanoat” qishloq kengashi raisi Nurmon Tongotarov va boshqalar. Rayon prokurori vazifasini bajaruvchi Muhammadquli Abdusattorov ham shular qatorida edi. Ularning barchasi rayonda aksilinqilobiy-millatchilik guruhi tuzganlikda va a’zoligi bo‘yicha ayblangandilar.



NKVDning Payariq rayon bo‘limi boshlig‘i, davlat xavfsizligi leytenanti Valiyev tomonidan imzolangan ayblov xulosasidan: **“Abdusattorov Muhammadquli 1901-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, SSSR fuqarosi. Xizmatchi, hibsga olinish paytida Payariq rayoni prokurori vazifasini vaqtincha bajaruvchi. O‘zbekiston kompartiyasi safidan chiqarilgan. Ma’lumotli. Ilgari sudlanmagan. U 1937-yildan buyon O‘zbekistondagi aksilinqilobiy-millatchilik tashkiloti a’zosi. Prokuratura organlarida zararkunandalik ishlarini olib borgan. Jinoyatchilar va quloqlarni o‘z himoyasiga olgan va qishloq xo‘jaligi sohasida ham buzg‘unchilik ishlari bilan shug‘ullanib, aholi o‘rtasida sovetlarga qarshi targ‘ibot qilgan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58- va 67-moddalari bilan javobgarlikka tortiladi”.**

Rayon prokurori, ya’ni Payariqda qonunchilik himoyasida turgan, unga muntazam rioya etilishini ta’minlovchi shaxsning o‘zi qanday qilib “aksilinqilobiy-millatchilar guruhi”ga a’zolikda ayblandi? Bu vazifada bir yil ham ishlamay nega uning ustidan ustma-ust shikoyatlar yoziladi, tekshiruvlardan boshi chiqmay qoladi?

Keling, uning tarjimaiholiga nazar tashlaylik. Voyaga yetgach, 1918-1923-yillarda turli joylarda g‘isht teruvchi usta bo‘lib ishlagan. 1924-1925-yillarda savdo korxonalarida, 1925-yilda Samarqand shahridagi rayon partiya komitetlaridan birida siyosiy maorif uyi mudiri, 1926-yilda Samarqand shahar partiya komitetida, 1927-yilda Samarqanddagi ipakchilik fabrikasida partiya tashkilotchisi, 1929-1930-yillarda ipakchilik fabrikasida ishchi, 1930-1932-yillarda Chiroqchi rayon partiya komiteti xodimi, 1932-1935-yillarda Payariq tumani pillachilik idorasi direktori o‘rinbosari, 1935-1937-yillarda Payariq tumanida pillachilik vakili, 1937-yilda tuman teatr va klublar direktori hamda Payariq tumani prokurori yordamchisi vazifalarida xizmat qildi. Bu orada uylanib, ikki farzandli bo‘ldi.

“O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti sovet savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rt. Karimjonovga
Nusxasi Respublika prokurori, o‘rtoq Sheyndlenga
Toshkent shahri

1) O‘zb KP(b) Payariq rayon partiya komiteti byurosining 1937-yil 29-oktabrdagi 21-son qarori bilan Abdusattorov Mamatqul o‘rindoshlik asosida Payariq tumani prokurorining yordamchisi lavozimiga tavsiya etilgan...

2) O‘rtoq Abdusattorov tuman prokurorligiga tavsiya etilgach, uni tuman teatr-kino va klublar ishi bo‘yicha 2000 so‘mdan ortiq mablag‘ni o‘zlashtirganlikda ayblab, xat kelib tushgan.

Abdusattorovga nisbatan kelib tushgan bu materiallar tekshirilganda o‘z tasdig‘ini topmadi.

O‘rtoq Abdusattorov Mamatqulni Payariq tumani prokurori etib tayinlash tug‘risidagi 29/X-37 yilgi 21-bayonnomada keltirilgan qarorimizni tasdiqlashingizni so‘rayman.

O‘z. KP(b) Payariq rayon komitetining kotibi Fayziyev”

“BUYRUQ
O‘zbekiston SSR prokuraturasi
Toshkent 29/XI-37-y.

1) **O‘zb. KP(b) Payariq rayon komiteti tomonidan tavsiya etilgan o‘rtoq Abdusattorov ushbu tuman prokurori etib TAYINLANSIN.**

O‘zbekiston SSR prokurori Sheyndlen”.

Shunisi qiziqki, M.Abdusattorov rayon prokurori vazifasini bajarishga kirishganiga bir oy o‘tar-o‘tmas uning ustidan respublika rahbar organlariga shikoyatlar yog‘ila boshladi. Endi uning rayondagi “O‘zbek truppasi” kino va klublarga rahbarligi davrida ilgari yozganlaridek 2000 so‘m emas, balki 3930 so‘m o‘zlashtirganligi, 1937-yil 12-dekabrda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlar kuni “Bilim” kolxozida vakil bo‘la turib, kolxozchilar o‘rtasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganligi aytilgan edi. Shuningdek, militsiya organlari tomonidan chorva molini o‘g‘irlashda gumon qilinib, hibsga olingan quloq Qarshiyevga nisbatan ochilgan jinoiy ishni to‘xtatganligi ham ta’kidlangandi. Shulardan kelib chiqib, Respublika prokurori Sheyndlen hali bu ayblovlar tekshirilmasdan, uni ishdan chetlashtirish haqida 1938-yil 5-yanvarda buyruq chiqaradi.

Keyin o‘tkazilgan surishtiruvlarda uning ustidan yozilgan xatda keltirilgan ayblovlar tasdig‘ini topmaydi. Shundan so‘ng Respublika prokurori yangi buyruq chiqarishga majbur bo‘ladi.

“O‘zb.SSR Prokuraturasi bo‘yicha 387-sonli
BUYRUQ

25-mart 1938-yil

Mening 1938-yil 5-yanvardagi farmoyishim bekor qilinganligi sababli Abdusattorov Payariq rayoni prokurori vazifasini bajaruvchi etib, shu yilning 15-martidan qayta tiklansin

O‘zbekiston SSR prokurori Sheyndlen”.

Lekin rayon prokurori vazifasida oz muddat ishlagan M.Abdusattorovning boshida yana qora quyunlar aylana boshladi. Endi uni “fosh etish”ga NKVDning rayon bo‘limi boshlig‘i Valiyev va viloyat prokurori Nazarenko kirishadi. Abdusattorov birinchi marta aprel oyining oxirida NKVDda so‘roq qilinadi. Ammo bu so‘roq hech qanday natija bermaydi. Shundan keyin ular prokurorning ustidan 1937-yil dekabr oyida yozilgan shikoyatlarni qaytadan ko‘tarishadi.

Viloyat prokurori Nazarenkoning Respublika prokurori Kuxarenkoga 1938-yil may oyi oxirlarida yozgan maktubidan parcha:

“Vazifasidan chetlatilgan Payariq rayon prokurori Abdusattorov ishi bo‘yicha Tekshiruv o‘tkazish uchun viloyat prokuraturasining katta tergovchisi, o‘rtoq Husainov xizmat safariga yuborildi. Tekshiruv davomida shu narsa aniqlandiki, Abdusattorovning partiyadan chiqarilishi va ishdan bo‘shatilishi mutlaqo to‘g‘ri bo‘lgan.

Tergov jarayonida Abdusattorov hibsga olinguniga qadar Ikromov va Xo‘jayevlarning burjua-millatchilik tudasida bo‘lganligini... Raykom kotiblari Fayziyev, Osipovning aksilinqilobiy topshiriqlarini bajarganligini... Sobiq quloqlar, bosmachilar va boshqa ijtimoiy yot unsurlardan qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarish uchun kadrlar tayyorlaganligini tan olgan.

...Abdusattorov muntazam ravishda quloqlar va jinoyatchilar bilan birgalikda spirtli ichimliklar iste’mol qilgan. Prokuraturani obro‘sizlantirib, aksilinqilobiy targ‘ibot qilishdan boshqa hech narsa bilan shug‘ullanmagan...

...U Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qismi, 67 va 140-moddaning 1-qismi qo‘llanilib jinoiy javobgarlikka tortilgan. Sobiq rayon kotibi Fayziyev va boshqalarning ishi bilan birlashtirish uchun unga oid materiallar Payariq rayon NKVDsiga topshirilgan Abdusattorov ana shu aksilinqilobiy guruh faoliyatida ishtirok etgan”.

Oradan ko‘p o‘tmay O‘zSSR prokurori vazifasini bajaruvchi Gunyatskiyning buyrug‘i chiqadi.

“O‘zbekiston SSR prokuraturasi bo‘yicha
561-BUYRUQ

1938-yil 5-iyun


...Payariq tumani prokurori vazifasini bajaruvchi Abdusattorov Muhammadquli prokuratura organlarida ishini davom ettirishining iloji yo‘qligini inobatga olib, lavozimidan ozod etilsin...”.

Muzaffar MUQIMOV,
SamDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori.

Mulohaza uchun mavzu

XALQ MAQOLI XALQNI TARBIYALAYDI

Bu imkoniyatdan foydalana olyapmizmi?



Xalq maqollarini xalq yaratadi. Yaratganda ham, yillar davomida ijtimoiy munosabatlar orqali sinab ko‘rib, pishitib yaratadi. Shu sababli ham maqollarda xalq, millat ruhi aks etadi.

Maqollar mukammal ijod namunasi, ulardagi nafaqat so‘zlar, hatto tinish belgilarini o‘zgartirsangiz ham mazmuniga putur yetadi. Xalq maqollari milliy mentalitet sandig‘i.

Xalq maqollarini o‘qish, anglash orqali biz nafaqat tilimizning nafosatini, balki millatimiz tafakkuri qudratini ham ko‘nglimizga, shuurimizga joylaymiz.

Ehtimol, shuning uchun ijodkorlar boshqa xalqlar maqollarini havas va ishtiyoq bilan tarjima qiladi. O‘qirmanlarda ham ularni yodlab olishga, davralarda ishlatishga mayl kuchli. O‘zbek xalq maqollari 30 ga yaqin tillarga tarjima qilingani to‘g‘risidagi ma’lumotni o‘qigandim.

Bugun kitob do‘konlarida boshqa xalqlar maqol, hikmatli so‘zlari jamlangan ixcham kitobchalar ko‘paygan. Ijtimoiy tarmoqlar esa, ularni zo‘r berib targ‘ib qilyapti.

Shunday paytda ko‘nglimdan bir og‘riqli savol kechadi: nega biz keyingi paytda o‘zbek xalq maqollarini keng targ‘ib etmayapmiz?

Bunday deyishimning boisi bor. Hozir nima ko‘p – kitob chop etadigan nashriyotu bosmaxona ko‘p, turli tuman kitoblar nashr etilyapti. Afsuski, bu kitoblar orasida ham o‘zbek xalq maqollarini topish qiyin. Yaqinda poytaxtdagi kitob do‘konlarini kezib, na kirill, na lotin alifbosidagi bunday kitobchalarni topa oldim.

Ish yuzasidan ko‘plab idoralar rahbarlarning xonasiga kirishimga to‘g‘ri keladi. Shunday paytda rahbar stoliga yoki, bor bo‘lsa, kitob javoniga zimdan razm solaman, ammo xalq maqollari kitoblariga ko‘zim tushmaydi. Kim biladi, ehtimol, aynan ana shu holat uchun ham ayrim rahbarlarimiz jamoasi yoki aholi, aniqrog‘i murojaatchi bilan suhbatda yetakchi ruhiga mos bo‘lmagan so‘z va iboralarni qo‘llashayaptimi?..

Adabiyot fani muallimlari bilan uchrashuvda so‘radim, 30 nafar o‘qituvchining birortasi ham o‘zbek xalq maqollaridan o‘ntasini yoddan aytib bera olmadi. Vaholanki, ko‘plab adib va ijodkorlar (xususan, o‘zim ham) turli ruknlarda, salohiyati garchi maqollarga tortmasada, falsafiy fikrlar yozishni, ularni ixcham kitobcha qilishni o‘rganishdi. Abdulla Qahhorning aforizmlari, O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitoblari hanuz qo‘lma-qo‘l, qayta-qayta nashr etilmoqda, hatto xorijiy tillarga o‘girilmoqda.

Demoqchimanki, bu janr eng avvalo, hadislar, allomalar hikmatli so‘zlari va xalq hayoti, tajribasi natijasida yuzaga kelgan. Katta asarlarni o‘qish susaygani boismi, bilmadim, shunday kitoblarga ehtiyoj oshgan. Bu yaxshi holat, albatta.

Lekin maqollar, hikmatli so‘zlarni qachon keng targ‘ib qilamiz? Nega hammaning nigohi tushadigan, doimiy e’tibordagi joylarga odamlarni ezgulikka boshlovchi, ularga saboq bo‘ladigan, noto‘g‘ri yo‘ldan qaytaradigan maqollarni yozib qo‘ymaymiz?

Ko‘chaga nazar solsang, reklamaning shunaqa turlari paydo bo‘lganki, ularning jozibasi ko‘zni qamashtiradi. Afsuski, biron joyda, hatto oliy o‘quv yurtlarida ham xalq maqollari yozilgan tashqi reklama vositalarini ko‘rmaysiz. Harqalay ta’lim maskanlari va shifoxonalarda allomalarimizning ibratli so‘zlarini yozib qo‘yishgan, shunisiga ham shukr.

Nazarimda, o‘zbek maqollarining o‘qilishini tashkil etishda hozirjavoblik mavridi keldi, bu ishni kechiktirib bo‘lmaydi. Buning uchun ayrim takliflarni bildirishni joiz topdim.

BIRINCHIDAN, “O‘zbek xalq maqollari” kitobi aholining turli qatlami, jumladan, yoshlarga, keksalarga, turli sohalar kishilariga mo‘ljallab amaldagi va yangi alifboda chop etilishi zarur. Bolalar uchun albatta, rasmlar bilan bosilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xalq maqollari mazmunini bolalikdan, yoshlikdan o‘zlashtirish kishi shuuridagi milliy ruhni kuchaytiradi.

IKKINCHIDAN, har bir oilada, idora rahbari stolida xalq maqollariga oid kitoblar bo‘lishiga erishmoq zarur. Ishonchim komil, har kuni o‘z xalqining maqollariga bir ko‘z yugurtirgan kishi albatta, pand-nasihat uchun so‘z boyligiga ega bo‘ladi. Ota-onaning maqollarni bilishi va o‘qib turishi esa bolada havas uyg‘otadi.

UCHINCHIDAN, barcha idoralar, tashkilotlar, xususan, o‘quv maskanlari hovlilarida, bino devorlarida o‘zbek xalq maqollari yozib qo‘yilishi shart. Chunki bu uslub ham bebaho hamda ta’sirchan saboq, tahsil hisoblanadi. Ko‘rib – ko‘z o‘rganadi, o‘qib – dil ravshanlashadi, anglab – fikr teranlashadi.

TO‘RTINCHIDAN, badiiy asarlarda o‘zbek xalq maqollari va iboralari qo‘llanilishini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish zarur. “O‘zbek frazeologik lug‘ati”ning fundamental nashrini tayyorlash chog‘i ham keldi. Bu savobli ishni Samarqand davlat universiteti olimlari, professorlar Hamdam Berdiyorov va Bekmurod Yo‘ldoshev boshlab, ixcham xrestomatiya ham chiqarishgandi, biroq keyinchalik bunga e’tibor susaydi.

BESHINCHIDAN, barcha ommaviy axborot vositalari – bosma nashrlar, televideniye, radio, internet saytlar xalq maqollarini berib borsa, ya’ni ko‘pchilikka eslatib tursa yomon bo‘lmasdi.

Xalq maqollari shu xalqning uzoq yillik tarixi davomida ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelgan turmush tarzining ifodasi. Uni tartib, axloq kodeksi yoki nizom o‘rnida qabul qilishgan. Demak, xalq maqollarini puxta o‘zlashtirish avvalo, milliy mentalitet barhayotligini ta’minlaydi, odamni fikrlashga, tartibga o‘rgatadi. Bu xislatlar esa, o‘z o‘rnida millatning ijtimoiy faolligiga ko‘maklashadi.

Farmon TOSHEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.

DEKABR OYIDA TAVALLUD TOPGANLAR

1-DEKABR

Xolmaxmat ISMATULLAYEV – 1951-yilda Samarqand tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi, «Do‘stlik» ordeni sohibi. Kulol.

2-DEKABR

Sunnatulla AHMADJONOV – 1958-yilda Oqdaryo tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi.

5-DEKABR

Shokir G‘AFFOROV – 1958-yilda Xatirchi tumanida tug‘ilgan. Tarix fanlari doktori, professor.

8-DEKABR

Javohir SINDAROV - 2005-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Shaxmatning rapid, blis va standart yo‘nalishlari bo‘yicha jahon chempioni. 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibi. “O‘zbekiston iftixori” unvoni sohibi.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 4-dekabr, chorshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 411 nusxada chop etildi. Buyurtma 636. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda